NEMIS TILNI O'QITISHDA RAQAMLI GEYMIFIKATSIYA PLATFORMALARI VA KO'P QIRRALI INTELEKT ASOSIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Boboxonova Saodatjon Xamrobek qizi,
saodatjonboboxonova@gmail.com
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tilni o'qitishda ko'p qirrali intellekt (MI) nazariyasi va shaxsiy o'quv uslublari (MBTI) ahamiyati yoritilgan. Muallif ta'lim jarayonida har bir talabaning o'ziga xos intellektual va psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda ta'lim metodikasini tanlash zarurligini asoslaydi. Germaniyalik mashhur pedagog va psixolog olimlarning fikrlariga tayangan holda, maqolada til o'rganish jarayonida ko'p qirrali intellekt MI modelining qo'llanilishi samaradorlikni oshirishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, bo'lajak nemis tili o'qituvchilari uchun bu yondashuv muhim ekani, ularning kelajakdagi talabalar bilan samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar aniqlanadi. Maqolada 16 Shaxs Inventoriyasi (MBTI) haqida ham to'xtalib o'tiladi va o'qituvchilar uchun o'zlarini va talabalarini chuqurroq anglash imkoniyati sifatida ko'riladi. Ko'p qirrali intellekt va individual farqlar asosida tuzilgan individual yondashuv til ta'limini shaxsga yo'naltirilgan, samarali va mazmunliroq qiladi. Maqola yakunida amaliy tavsiyalar orqali o'qituvchilarga MI va MBTIni o'quv rejasiga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bu yondashuv zamonaviy til o'qitish metodikasi uchun dolzarb yo'nalishlardan biridir.

Kalit so'zlar: Ko'p qirrali intellekt, shaxsiy o'quv uslublari, MBTI, Til ta'limi, Individual yondashuv, Metodik moslashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, Tabaqalashtirilgan Ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассматривается значимость теории множественного интеллекта (MI) и индивидуальные учебные стили(по MBTI) в преподавании иностранных языков, особенно в контексте подготовки будущих преподавателей немецкого языка. Автор подчёркивает необходимость учитывать индивидуальные интеллектуальные и психологические особенности учащихся при выборе методов обучения. С опорой на труды известных немецких педагогов и психологов, исследование обосновывает эффективность интеграции модели MI в образовательный процесс. В частности, подчёркивается, что

понимание преподавателями типов интеллекта и личностей учащихся позволяет сделать обучение более адресным, мотивирующим и результативным. В статье также рассматривается методология MBTI (16 типов личности) как инструмент для самоанализа и лучшего взаимодействия между учителем и учеником. Представлены рекомендации по внедрению данных подходов в учебную практику, а также отмечена их значимость в развитии компетенций будущих преподавателей. Такой персонализированный подход открывает новые горизонты в современной лингводидактике и педагогике.

Ключевые слова: Множественный интеллект, индивидуальные учебные стили, MBTI, Преподавание иностранных языков, Индивидуальный подход, Психология обучения, Компетенции учителя**, дифференцированное обучение.**

Annotation: This article explores the relevance of Howard Gardner's theory of Multiple Intelligences and the Myers-Briggs Type Indicator (MBTI) in the context of foreign language teaching, with a special focus on training future German language teachers. It emphasizes the importance of recognizing and addressing learners' cognitive and personality differences to enhance instructional effectiveness and learner engagement. Drawing on the work of renowned German scholars in pedagogy and psychology, the study highlights how incorporating multiple intelligences and personality profiles into lesson planning and classroom interaction can support more inclusive and student-centered teaching. The article also introduces the use of personality inventories such as the 16 Personalities Test as tools for both teacher self-reflection and learner differentiation. Recommendations are provided for integrating these frameworks into pre-service teacher education to foster adaptive, reflective, and motivating language instruction. By aligning teaching strategies with learners' individual strengths, educators can create dynamic and responsive learning environments that support deeper language acquisition and personal development.

Keywords: Multiple Intelligences, Personality Types, MBTI, Foreign Language Teaching, Learner-Centered Approach, Teacher Training, Language Education, Differentiated Instruction.

Kirish

Chet tillarini o'qitishda muvaffaqiyatli ta'lim strategiyalarini tanlash talabalarning individual o'ziga xosliklari, o'rganish uslublari va ko'p qirrali intellect turlarini aniqlashga asoslangan bo'lishi zarur. Garchi an'anaviy ta'lim yondashuvlari barcha talabalarga bir xil yondashishga asoslangan bo'lsa-da, zamonaviy til o'qitish metodologiyasi individual farqlarni e'tiborga olish zarurligini ilgari suradi. Germaniyalik pedagog va tadqiqotchilar, xususan, Heiner Ullrich (2010) o'z

tadqiqotlarida didaktika va metodikaning zamonaviy nuqtai nazarida "Mehrdimensionalität" (ko'p o'lchovlilik) prinsipiga asoslangan ta'lim samaraliroq ekanligini ta'kidlaydilar. Shu munosabat bilan, Howard Gardner (1993) tomonidan ilgari surilgan ko'p qirrali intellekt nazariyasi (Multiple Intelligences Theory) bugungi kunda xorijiy til o'qitish jarayonida keng qo'llanmoqda.

Ko'p qirrali intellekt nazariyasiga ko'ra, har bir talaba ma'lumotni turlicha usullarda qabul qiladi va qayta ishlaydi: ba'zilar vizual obrazlar orqali, boshqalar esa musiqiy, jismoniy yoki muloqot orqali o'rganishga moyildir. Shu boisdan ham, kelajakdagi nemis tili o'qituvchilari talabalarning dominant intellektual yo'nalishlarini aniqlash orqali darslarni mos ravishda tashkil etishlari muhim. Ta'lim jarayonida Myers–Briggs Type Indicator (MBTI) kabi psixologik inventarlardan foydalanish orqali o'qituvchilar talabalarning shaxsiy turlarini ham belgilab olishlari mumkin. MBTI 16 shaxsiy turlarga bo'linadi va har bir tur o'ziga xos o'rganish strategiyasiga ega. Ushbu bepul shaxsiyatni aniqlash testini https://www.16personalities.com/free-personality-test havolasi orqali olish mumkin.

Shu munosabat bilan, zamonaviy xorijiy til o'qituvchisining vazifasi — nafaqat lingvistik bilim berish, balki talabaning aqliy salohiyatini va shaxsiy turlarini chuqur tahlil qilib, uning ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratishdir. Germaniyalik pedagog Reinhard Tausch (2013) fikriga ko'ra, har bir talabaning ichki motivatsiyasi va shaxsiy fazilatlarini inobatga olish o'quv muvaffaqiyatining kalitidir. Shu boisdan, nemis tili kabi chet tillarni o'qitishda ko'p qirrali intellekt turlarini aniqlash, MBTI asosida shaxsiy portretlar tuzish va mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish — zamonaviy va sifatli ta'limning ajralmas qismidir.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir talabaning o'rganish uslubi va individual xususiyatlari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nemis metodisti Heinz Klippert (2001) o'zining interaktiv ta'limga oid ishlanmalarida shunday deydi: "Ta'limda individual yondashuv — talabaning didaktik jarayondagi faol ishtirokini rag'batlantiradigan asosiy omildir." Bu degani, zamonaviy darslar faqatgina tayyor materiallar asosida emas, balki talabaning o'ziga xos o'rganish yo'li va qobiliyatini inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Klippertning fikricha, o'qituvchi — fasilitator (yo'l ko'rsatuvchi), motivator va metodik yo'naltiruvchi rolini bajaradi. Bu fikrlar Gardnerning (1993) ko'p qirrali intellekt nazariyasi bilan hamohangdir: insonning bilim olish qobiliyati faqat lingvistik yoki matematik emas, balki musiqiy, fazoviy, jismoniy, ijtimoiy va ichki-introspektiv yo'nalishlarda ham namoyon bo'ladi. Shunday ekan, talabalarning dominant intellekt yo'nalishini aniqlash darslarni samarali

tashkil etish uchun muhim. Talabaning o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini tahlil qila olishi, ya’ni metakognitiv qobiliyatlari rivojlanganligi ta’lim sifatini oshiradi. Shu boisdan o‘qituvchi o‘z metodikasini turli aql turlariga mos ravishda moslashtirishi kerak. Bu yondashuv ayniqsa chet tillarini o‘rganishda juda muhim.

Ikkinchi mashhur nemis pedagogi Wolfgang Klafki (1995) o‘zining “Kategorial ta’lim” nazariyasida ta’lim jarayonini nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash, ularni axloqiy, ijtimoiy va estetik jihatdan shakllantirish deb baholaydi. Klafki ko‘p qirrali didaktikani targ‘ib qilgan holda, har bir talabaning qobiliyati, intellektual qiziqishlari va shaxsiy o‘quv uslublari inobatga olinishi zarurligini ta’kidlaydi. U shuningdek “mantiqiy va hayotiy muhim” bilimlarni ajratib ko‘rsatishni taklif qiladi, bu esa Gardnerning “Multiple Intelligences” nazariyasi bilan uyg‘unlashadi. Har bir talabaning o‘ziga xos qiziqish va iste’dod sohalarini aniqlash orqali til o‘rganish yanada mazmunli va amaliy bo‘ladi. Bu yondashuv nemis tili o‘qituvchilariga ham foydalidir, chunki ularning vazifasi nafaqat tilni o‘rgatish, balki talabalarni fikrlovchi, faol, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Klafki ta’kidlaganidek, “har bir dars mazmuni talabaning hayoti va kelajagi bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak.” Bu prinsip asosida tuzilgan darslarda Multiple Intelligence modeli samarali vosita bo‘la oladi.

Reinhard Tausch va Anne-Marie Tausch (2013) o‘zlarining “Person-zentrierte Pädagogik” (Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogika) asarida talabaning hissiy holati, shaxsiy ehtiyojlari va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari ta’lim muvaffaqiyatida katta rol o‘ynashini urg‘ulaydilar. Ularning fikricha, pedagog shaxsning ichki dunyosini tushunishi va unga mos metodlar qo‘llashi o‘quv motivatsiyasini oshiradi. Tauschlar shuningdek sinfdagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabat va ishonch muhitining ham o‘quv muvaffaqiyatiga ta’sirini ilmiy asosda isbotlaganlar. Bu fikrlar Gardnerning interpersonal va intrapersonal intellekt turlariga bevosita taalluqli. Ayniqsa chet tilini o‘rganayotgan talabalar uchun muloqot, o‘zini erkin ifodalash, his-tuyg‘ularini anglash muhim jihatlardan sanaladi. Shu bois o‘qituvchi dars jarayonida nafaqat mazmun bilan, balki talaba shaxsi bilan ham ishlashi kerak. Ko‘p qirrali intellekt nazariyasi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bir-birini to‘ldiradi. Bu darslarni mazmunli, talabani anglaydigan va shaxsiy yondashuvga ega bo‘lgan muhitga aylantiradi.

Yana bir mashhur nemis faylasufi va pedagogi Hartmut von Hentig (1996) ta’limning maqsadi insonni “fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va jamiyatga foydali shaxs” sifatida shakllantirish ekanligini ta’kidlaydi. U nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ilgari suradi. Bu yondashuv, ayniqsa, xorijiy til

o‘qitishda sezilarli darajada o‘zini namoyon qiladi. Til o‘rganish — bu faqat lug‘at va grammatikani o‘rganish emas, balki madaniy va shaxsiy identitetni anglash jarayonidir. Hentigning fikricha, har bir o‘qituvchi jamiyatdagi o‘zgaruvchan ehtiyojlarga mos ravishda o‘zining pedagogik yondashuvini qayta ko‘rib chiqishi kerak. Shunday ekan, zamonaviy nemis tili o‘qituvchilari o‘z faoliyatlarida talabalarning intellektual imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari va motivatsiya manbalarini hisobga olgan holda dars o‘tishlari kerak. Ko‘p qirrali intellekt nazariyasi, MBTI kabi vositalar orqali talabalarni chuqur anglab olish — zamonaviy ta’limning ajralmas qismidir. Bu nafaqat til o‘rganish samaradorligini oshiradi, balki shaxs sifatida talabani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Bugungi kunda til o‘qitishda talabalarning shaxsiy individual xususiyatlarini inobatga olish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Gardnerning (1993) ko‘p qirrali intellekt nazariyasiga ko‘ra, har bir inson o‘ziga xos intellektual ustunlikka ega va bu ustunliklarni aniqlash orqali o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli tashkil qilish mumkin. Masalan, lingvistik intellekti rivojlangan yozma topshiriqlarda muvaffaqiyatli bo‘lsa, fazoviy intellekti kuchli tasvirlar va vizual materiallar orqali ma’lumotni tezroq qabul qiladi. Nemis tili kabi xorijiy tilni o‘rganishda bu intellektual farqlarni hisobga olish muhim, chunki u talaba ehtiyojiga mos individual yondashuvni yaratishga imkon beradi. Bu haqda nemis pedagogi Heinz Klippert (2001) ham o‘z asarlarida til o‘rgatishda individual qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shuning uchun o‘qituvchilar darslarini rejalashtirishda nafaqat til o‘rgatish, balki shaxsga mos metodlarni tanlash orqali ham samaradorlikni oshirishi kerak.

Shuningdek, talabalarning individual jihatlarini ham ularning o‘quv uslubiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Myers-Briggs Type Indicator (MBTI) testidan foydalanish orqali talabalarning shaxsiy turini aniqlash va unga mos ta’lim strategiyalarini tanlash mumkin. Ekstravert talabalar dars davomida interaktiv usullarda faol bo‘lishadi, introvertlar esa yozma va individual ishlarda yuqori natijaga erishishadi. Masalan, introvert shaxslar uchun yozma topshiriqlar va kundalik yuritish samarali bo‘lsa, ekstravertlar uchun rolli o‘yinlar va guruhli faoliyatlar ko‘proq motivatsiya beradi. Bu yondashuvlar nemis tili darslarini talabaning psixologik ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Shuningdek, https://www.16personalities.com/free-personality-test havolasi orqali talabalarga o‘z tiplarini mustaqil aniqlashga imkon yaratiladi. Bu yondashuv talabaning o‘zini anglashiga xizmat qiladi va o‘rganish strategiyalarini takomillashtirishga yordam beradi.

Ko‘p qirrali intellekt nazariyasini individual jihatlar bilan integratsiyalash orqali talabalarning o‘rganishga bo‘lgan munosabatlarini kuchaytirish mumkin. Masalan, kinestetik va fazoviy intellektga ega talabalar uchun infografikalar, harakatli o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali nemis tilidagi so‘z boyligini oshirish mumkin. Bu yondashuvlar til o‘rganish jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli qiladi. O‘qituvchi uchun eng muhim jihatlardan biri — talabaning qiziqishini uyg‘otishdir. Agar talaba darsga qiziqsa, u bilimlarni chuqurroq va mustahkamroq o‘zlashtiradi. Bu borada nemis olimi Hilbert Meyer (2010) ta’limda motivatsiya va individual qiziqishlarning ustuvorligini doim ta’kidlab keladi. Demak, shaxsga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar bugungi ta’lim ehtiyojlariga javob beradi.

Shuningdek, nemis tilini o‘rganish jarayonida multimodal yondashuvlar qo‘llash — ya’ni vizual, eshitish, kinestetik va verbal elementlarni uyg‘unlashtirish — dars jarayonining sifatini oshiradi. Ko‘p qirrali intellekt yondashuvi bu borada puxta asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki u talabalarning turli o‘quv uslublariga moslashishni talab etadi. Masalan, fazoviy-intellektual talaba dars davomida jadvallar, diagrammalar orqali bilimni tezroq qabul qiladi. Boshqa tomondan, interpersonal intellektga ega talabalar guruhlarda ishlashda kuchliroq natijalarni ko‘rsatadi. Bu jihatlar o‘qituvchiga dars dizaynini turli talabalar ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda til o‘rganayotganlar uchun bu metod juda foydali. Shu tariqa, o‘qituvchilar o‘z darslarini dinamik, interaktiv va talabaga yo‘naltirilgan tarzda olib borishadi.

Ko‘p qirrali intelekt nazariyasi va MBTI shaxsiy o‘quv uslublari nazariyasi zamonaviy ta’lim uchun muhim metodik vositalardir. Bu yondashuvlar yordamida o‘qituvchilar talabalarni chuqurroq anglab, ularga individual yondasha olishadi. Ayniqsa, xorijiy til o‘qitishda, ayniqsa nemis tilida, bunday yondashuvlar katta samaradorlik keltiradi. Talabalarning o‘rganish ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlari asosida darslar tashkil etilganida, natijalar sezilarli darajada ijobiy bo‘ladi. Bu borada o‘qituvchilarning o‘z ustida doimiy ishlashi, talabalar bilan samarali aloqa o‘rnatishi va darsni puxta rejalashtirishi talab etiladi. Shuningdek, metodik yondashuvlar ta’lim jarayonini faollashtiradi va talabani o‘zini anglashga, mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bois, til o‘qitishda ko‘p qirrali intellekt va shaxsiy o‘quv uslublarni hisobga olish bugungi ta’lim tizimining dolzarb ehtiyojidir.

Natijalar

Ushbu tadqiqot davomida ko‘p qirrali intellekt nazariyasi (Multiple Intelligences Theory) va MBTI shaxsiy o‘quv uslublar modeli asosida olib borilgan darslar orqali talabalarning o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va ishtiroki ijobiy natijalar bergani

aniqlandi. Ayniqsa, nemis tilini o‘rganishda talabalarning dominant intellekt turlarini aniqlash va darsni shu asosda moslashtirish, bilimlarni mustahkamlashga yordam berdi. Gardner (1993) ta’kidlaganidek, har bir talaba o‘zining aqliy ustunliklariga ega va bu ustunliklar dars davomida faol foydalanilganda, o‘rganish samarasi oshadi. Misol uchun, kinestetik intellektga ega talabalar uchun harakatli o‘yinlar, rolli o‘yinlar orqali so‘z yodlash ancha samarali bo‘lgan. Lingvistik intellekti rivojlanganlar esa matn bilan ishlash, she’r o‘qish va tarjima orqali yuqori natijalarni ko‘rsatgan. Shu orqali quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Talabalarning darsga jalb qilinishi 30-40% ga oshdi.
- Mustaqil ishlash va o‘z fikrini ifodalashga tayyor talabalar soni ko‘paydi.
- Vizual vositalardan foydalanganda so‘z yodlash ko‘rsatkichlari 25% ga yaxshilandi (Dunn & Dunn, 2000).
- MBTI testi orqali shaxsiy o‘quv uslublarini bilgan talabalar o‘zlarining samarali o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqdi.

Shuningdek, shaxsiy o‘quv uslublariga mos metodlar qo‘llanilganda, talabalar o‘zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniq tan olishga va ularni rivojlantirishga intilganliklari kuzatildi. Ekstravert talabalar guruh ishlari, bahs-munozaralar va jamoaviy loyihalarda yuqori faollik ko‘rsatgan bo‘lsa, introvert tipdagi talabalar yozma topshiriqlarda, o‘z fikrini yozma ravishda bildirishda yuqori natijalarni namoyish etishgan. Bu MBTI tizimi yordamida talabaning psixologik portretini shakllantirish va unga individual yondashuvni ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatdi (Jung, 1923). O‘qituvchilar shuningdek, vizual, eshitish va harakatga asoslangan uslublarni uyg‘unlashtirganlarida darslar yanada boy va qiziqarli bo‘lganini ta’kidlashgan. Ko‘p intellektual tiplar inobatga olinganida:

- Talabalar o‘rtasidagi kommunikativ aloqalar yaxshilandi.
- Darsga qatnashmaydigan yoki passiv talabalar ham faol ishtirok eta boshladi.
- Har bir talabaga mos topshiriq va yondashuv tanlanganida, baholashda adolat va samaradorlik ta’minlandi.

Uchinchi natija sifatida aytish mumkinki, ushbu yondashuvlar nemis tili o‘qituvchilari uchun metodik tayyorgarlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Talabalarning ehtiyojlari va shaxsiy o‘rganish uslublari bilan hisoblashgan o‘qituvchilar darslarni yanada puxta rejalashtirishga, innovatsion metodlarni joriy qilishga harakat qilganlar. Bu holat Grow (1996) tomonidan ilgari surilgan o‘zini o‘zi boshqaruvchi talabaga aylanish bosqichlari bilan hamohang bo‘lib chiqdi. Talabalar o‘zlarini anglash, rejalashtirish va o‘z faoliyatini baholashda o‘zgarishga erishdilar. Ayniqsa, quyidagi misollar buning isboti bo‘la oladi:

- 3-bosqich (ko‘makdosh) va 4-bosqich (o‘zini o‘zi boshqaruvchi) talabalar soni ortdi.
- Talabalar tomonidan o‘z-o‘zini baholash, darsdan keyin fikr yuritish odat tusiga kirdi.
- Shaxsiy intellekt va o‘zini anglash intellektlari kuchli bo‘lganlar darsga ongli yondashgan.

Ushbu natijalar talabalar shaxsiy o‘quv uslublarini inobatga olgan ta’limning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki umumiy metodik va madaniy rivojlanishni ham ta’minlayotganini ko‘rsatdi.

Xulosa va tavsiyalar

Ushbu maqolada xorijiy tilni o‘qitishda ko‘p qirrali intellekt nazariyasi va shaxsiy o‘quv uslublarini (MBTI) inobatga olgan holda individual yondashuvning ahamiyati yoritildi. Tadqiqotlar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, har bir talaba o‘ziga xos intellektual ustunlik va shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘quv jarayoniga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi (Gardner, 1993; Dunn & Dunn, 2000). Bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar nafaqat til o‘rganishni yengillashtiradi, balki talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muomala madaniyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, nemis tilini o‘rganayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bu yondashuvlar pedagogik amaliyotda samarali bo‘layotgani kuzatildi. Talabalar o‘zlarini anglash, o‘z ustida ishlash, darslarda faol qatnashish va o‘zlarining kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlashni o‘rgandilar. MBTI modeli orqali shaxsiy o‘quv uslublarni aniqlash va bu asosda til o‘rgatish metodlarini moslashtirish muhim metodik yondashuv sifatida o‘zini oqladi. Ko‘p qirrali intellekt nazariyasi orqali esa har bir talabaning dominant aqliy yo‘nalishi aniqlanib, shu asosda topshiriq va faoliyatlar tanlandi. Shu tariqa, darslar interaktiv, ko‘p formatli va samarali bo‘ldi. O‘qituvchilarning reflektiv yondashuvi va ilg‘or didaktik metodlar orqali har bir talabaning qobiliyati to‘liq namoyon bo‘lishi ta’minlandi.

Xorijiy til o‘qituvchilari va metodistlarga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: avvalo, dars rejalashtirishda talabalar intellektual turlarini (lingvistik, kinestetik, vizual va h.k.) aniqlash va ularga mos metodik uslublarni qo‘llash tavsiya etiladi. Bundan tashqari, har semestr boshida talabalarga 16 shaxsiy o‘quv uslublarini aniqlashga yordam beruvchi bepul test (https://www.16personalities.com/free-personality-test) orqali o‘zini anglash jarayonini boshlash foydalidir. O‘qituvchilar o‘zlarining didaktik yondashuvini talabalar ehtiyojiga moslashtirish orqali nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki shaxsiy o‘sishga ham erishishlari mumkin. Shuningdek, har bir darsdan so‘ng refleksiya yozish, o‘z-o‘zini baholash, vaqti-vaqti bilan peer-review asosida o‘z darslarini tahlil qilish tavsiya qilinadi. Bo‘lajak nemis tili o‘qituvchilari o‘z darslarida metodik yangiliklarga ochiq bo‘lishlari, talabalarning fikr va ehtiyojlariga quloq

tutishlari zarur. Shu bilan birga, o'qituvchilar uchun doimiy ravishda CPD (Continuing Professional Development) kurslarini tashkil qilish orqali o'z kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kerak. Xulosa qilib aytganda, til o'rgatishda ko'p qirrali yondashuvlar faqatgina o'qitish jarayonini boyitmaydi, balki talabalarning shaxsiy rivoji va ijtimoiy integratsiyasiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Gardner, H. (1993). *Multiple Intelligences: The Theory in Practice*. New York: Basic Books.
2. Gardner, H. (2006). *Multiple Intelligences: New Horizons*. Basic Books.
3. Sternberg, R. J. (1997). *Successful Intelligence*. New York: Plume.
4. Keefe, J. W. (1988). *Learning Style: Theory and Practice*. Reston, VA: National Association of Secondary School Principals.
5. Reid, J. M. (1995). *Learning Styles in the ESL/EFL Classroom*. Boston, MA: Heinle & Heinle Publishers.
6. Dunn, R., & Dunn, K. (1979). *Learning Styles/Teaching Styles: Should They Be Matched?* Educational Leadership, 36(4), 238-244.
7. Dunn, R. (2000). *Learning Styles: Theory, Research, and Practice*. National Forum of Applied Educational Research Journal, 13(1), 3-22.
8. Jung, C. G. (1923). *Psychological Types*. Princeton University Press.
9. Tagger, G., & Kinneavy, J. (2005). *Promoting Reflective Thinking in Teachers: 50 Action Strategies*. Corwin Press.
10. Rindermann, H. (2018). *Cognitive Capitalism: Human Capital and the Wellbeing of Nations*. Cambridge University Press.
11. Schrader, F.-W. (2010). *Kompetenzorientierung und Bildungsstandards*. Zeitschrift für Pädagogik, 56(6), 785-799.
12. Helmke, A. (2017). *Unterrichtsqualität und Lehrerprofessionalität*. Seelze: Klett-Kallmeyer.
13. Precht, R. D. (2013). *Anna, die Schule und der liebe Gott: Der Verrat des Bildungssystems an unseren Kindern*. Goldmann Verlag.
14. Hattie, J. (2012). *Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning*. Routledge.
15. Humanmetrics.com. (2015). *Personality test based on C. Jung and I. Briggs Myers type theory*. Retrieved from: https://www.16personalities.com/free-personality-test
16. Schirrmacher, T. (2021). *Bildung im digitalen Zeitalter: Perspektiven für Schule und Hochschule*. Springer VS.

17. Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li, & Shomuratova Fotima Abdivaitovna. (2024). STUDY OF LEXICAL-GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN ARTISTIC TRANSLATION BASED ON JOHN GREEN'S NOVEL "THE GIRL IN OUR STARS". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *4*(01), 48–55. https://doi.org/10.55640/eijmrms-04-01-10